

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.Qx.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY
TADQIQOT INSTITUTI**

MATYAKUBOV MAQSAD MURATOVICH

**SHO‘RLANGAN TUPROQLARDA YETISHTIRISH UCHUN QOVOQ NAV-
NAMUNALARINI TANLASH VA MAQBUL EKISH SXEMALARINI
ANIQLASH (Xorazm viloyati sharoitida)**

06.01.06–Sabzavotchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Matyakubov Maqsad Muratovich

Sho‘rlangan tuproqlarda yetishtirish uchun qovoq nav-namunalarini tanlash
va maqbul ekish sxemalarini aniqlash (Xorazm viloyati sharoitida) 3

Матякубов Максад Муратович

Подбор сортообразцов тыквы для засоленных почвах и определение
оптимальных схем посева (в условиях Хорезмской области) 21

Matyakubov Maqsad Muratovich

Selection of pumpkin variety samples for saline soils and determination of
optimal planting schemes (in the conditions of the Khorezm region) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.Qx.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY
TADQIQOT INSTITUTI**

MATYAKUBOV MAQSAD MURATOVICH

**SHO‘RLANGAN TUPROQLARDA YETISHTIRISH UCHUN QOVOQ NAV-
NAMUNALARINI TANLASH VA MAQBUL EKISH SXEMALARINI
ANIQLASH (Xorazm viloyati sharoitida)**

06.01.06-Sabzavotchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Qx1894 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psuyaiti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shokirov Alisher Jo‘raboyevich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar:

Adilov Maxsud Mirvasitovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

Normatov Norqobil Jo'rayevich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori.

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 11-avgust, soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuaginfo@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti ARM binosi, 2-qavat, anjumanlar zali.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 556497 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy, Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 31-iyulda tarqatildi.
(2026-yil 9-iyundagi 41-raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.I.Asatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, q.x.f.d., professor.

M.Z.Xolmurotov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d.,
dotsent.

S.A.Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, q.x.f.d., professor.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning turli mamlakatlarida poliz ekinlari, xususan, qovoq ekinini yetishtirishga aloxida e'tibor qaratilgan. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda dunyoda 2,1 ming gektardan ortiqroq maydonlarda qovoq ekilib, 30,8 mln. tonnadan ortiq qovoq mahsuloti etishtirilgan. Qovoq ekinini yetishtirish bo'yicha: "Xitoy (7,44 mln. t.), Hindiston (5,20 mln. t.), Ukraina (1,31 mln. t.), Rossiya (1,17 mln. t.), AQSh (1,07 mln. t.) mamlakatlari yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda"¹. Qovoq mevalari tarkibi ozuqaviy moddalar, vitaminlarga boy bo'lib, urug'laridan yog' olinib, bu yog'lar kosmetika, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladi.

Jahonda poliz ekinlarini yetishtirishning resurstejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish, turli noqulay sharoitlarga mos navlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda qovoqning turli vitaminlarga boy, uzoq muddat saqlanuvchi va yil davomida muntazam iste'mol qilishga yaroqli navlarini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. So'ngi yillarda insonlarda turli kasalliklar: yurak yetishmovchiligi, oshqozon, saraton kasalliklari rivojlanib bormoqda va korotin hamda turli vitaminlarga boy qovoq mahsulotiga bo'lgan talab ortib bormoqda. AQSh, Meksika, Ispaniya, Turkiya, Xitoy va Rossiya olimlari tomonidan qovoqning noqulay tuproq-iqlim sharoitlariga moslashuvchan va turli maqsadlar uchun yangi navlarini yaratish, yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda poliz ekinlaridan qovoq yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish, mahalliy serhosil navlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilib muayyan natijalarga erishilgan. Biroq sho'rlangan hududlar uchun mos navlarini tanlash va ekish sxemalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazishda, ayniqsa, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini meva-sabzavot bo'yicha 28 foizga etkazish"² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu o'rinda qovoq ekinini sho'rlangan tuproqlarda yetishtirish uchun moslashuvchan, ertapishar, yuqori hosilli navlarini tanlash, har bir navlar uchun qulay ekish sxemalarini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"³ gi Farmoni, 2025-yil 8-apreldagi PQ-136-son "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁴ gi qarori hamda

¹ <https://www.atlasbig.com/countries-pumpkin-production>

² <https://lex.uz/uz/pdfs/5841077>

³ <https://www.lex.uz/pdfs/6802687>

⁴ <https://www.lex.uz/pdfs/6424449>

mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qovoq o'simligining ahamiyati, biologik xususiyatlari, seleksiyasi, mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha AQSh, Ispaniya, Meksika va ko'plab xorijiy mamlakatlarda: H.M.K. Abbas, Y.M.H. Younis, S.Ghirmay, S.S.Al-Shihry, M.Kreck, S.Zargar; MDH davlatlarida: K.I.Pangalo, A.I.Filov, N.I.Vavilov, V.F.Belik, Yu.G.Skripnikov, V.A.Borisov, N.A.Golubkina, G.E.Kobkova, T.G.Koleboshina, G.A.Starix, G.A.Texanovich, V.F.Pivovarov, V.Yu.Mixalev, S.N.Bojenov, N.V.Tyutyuma, R.A.Gish, A.P.Dunin, A.V.Fedorov va boshqalar ko'plab izlanuvchilar tomonidan turli mintaqalarda qovoq ekini yetishtirish texnologiyalari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda qovoq ekinini navlari, biologik xususiyatlari, seleksiyasi va yetishtirish texnologiyalarini o'rganish bo'yicha: X.Ch.Bo'riev, I.M.Asheroev, A.A.Rustamov, R.A.Xakimov, Sh.K.Umidov, N.A.Djumanioyozova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib borilib, muayyan tuproq-iqlim sharoitlar uchun tavsiyalar berilgan. Lekin, sho'rlangan tuproqlarda qovoqning xorijiy dalatlarda yaratilgan yangi ertapishar, o'rtapishar, kichik mevali, yirik mevali istiqbolli navlarini tanlash va qulay ekish sxemalarini aniqlash bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining № 2-raqamli "Sho'rlangan tuproqlarda yetishtirish uchun qovoq nav namunalarini tanlash va maqbul ekish sxemalarini aniqlash (Xorazm viloyati sharoitida)" mavzusi doirasida bajarilgan (2022-2025 yy.).

Tadqiqotning maqsadi sho'rlangan tuproqlarda qovoq nav namunalarini o'sishi-rivojlanishi, morfologik va qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha baholash, istiqbolli navlarini tanlash va maqbul ekish sxemalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Xorazm viloyati sharoitida sho'rlangan tuproqlarda qovoq nav namunalarini o'sishi-rivojlanishi va qimmatli xo'jalik belgilarini kompleks baholash;

sho'rlangan tuproqlarda yetishtirish uchun qovoqning istiqbolli navlarini yetishtirishning hosildorlik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash;

qovoq navlarini sug'ormasdan yetishtirishda yuqori hosildorlikni ta'minlovchi maqbul ekish sxemalarini aniqlash;

qovoqning navlarini turli sxemalarda yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida sho'rlangan tuproqlarda qovoqning mahalliy Ispanskaya 73, Shirintoy navlari va 2 ta turiga (*C.maxima* turiga mansub 20 ta, *C.moschata* turiga mansub 8 ta) mansub 28 ta xorijiy namunalari hamda 4 ta

(360+90)/2×80 sm (270+90)/2×90 sm, 180×90 sm, 180×60 sm) sxemalari olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib, sho'rlangan tuproq-iqlim sharoitida yetishtirilgan qovoq nav namunalari va turli sxemalarda sug'ormasdan o'stirilgani o'simliklarining morfologik xususiyatlari, mevalarining mahsuldorligi va hosildorligi hisoblandi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar «Методика полевого опыта в овощеводстве и бахчеводстве» (Belik V.F., Bondarenko G.L., 1979); «Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур» (1975), «Методические указания по изучению и поддержанию коллекции овощных растений» (1981), Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi (Azimov B.J., Azimov B.B., 2002) qo'llanmalari bo'yicha olib borilgan, tadqiqot natijalarining statistik tahlili B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" (1985) dispersion uslubi Microsoft Excel 2010 kompyuter dasturlarida, 0,95 % ishonchlilik oralig'i bilan amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor, qovoq ekini seleksiyasi uchun birlamchi manbaa sifatida: eng ertapishar – Konfetka, Rossiyanka, Yaponskaya, Matilda; kalta palakli – Konfetka, Lechebnaya; kichik mevali - Konfetka, Yaponskaya; yirik mevali – Estamp, Stofuntovaya namunalari ajratilgan;

mevalarining biokimyoviy tarkibi bo'yicha - umumiy qand miqdori (8-10 % gacha) eng yuqori - Izyashnaya, Yaponskaya, Vitaminnaya, Jemchujina namunalari; Vitamin S miqdori (15-16 mg/100g) eng yuqori - Yaponskaya namunasi; karotin miqdori - (12-13 mg/100g) eng yuqori - Lechebnaya, Vitaminnaya namunalari aniqlangan;

sho'rlangan tuproqlarda qovoqning istiqbolli Konfetka va Yaponskaya navlari dastlabki mevalari standart navlarga nisbatan 22-25 kungacha erta pishishishi aniqlangan;

tovarbop hosili standart navlarga nisbatan Izyashnaya, Tyoshin pirog, Yaponskaya, Vitaminnaya navlarida 17,3-21,5 % gacha yuqori bo'lganligi isbotlangan;

qovoqni navlarini turli sxemalarda ekib sug'ormasdan yetishtirishda 180×90 sm ekish sxemasi eng maqbul ekanligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sho'rlangan tuproqlarda o'rganilgan qovoq nav namunalari ichida standart navlarga nisbatan: Konfetka, Rossiyanka, Yaponskaya, Matilda namunalari mevalari 22-25 kungacha erta pishgan;

tovarbop hosilli standart Ispankaya 73 (48,0 t/ga) naviga nisbatan: Izyashnaya (57,8 t/ga), Tyoshin pirog (56,3 t/ga) navlarida - 20,4-17,3 % ga, standart Shirintoy (51,6 t/ga) naviga nisbatan, Yaponskaya (54,9 t/ga) navi - 6,4 % ga, Vitaminnaya (62,7 t/ga) navi - 21,5 % ga yuqori bo'lgan;

qovoq navlarini turli ekish sxemalarida ekib sug'ormasdan yetishtirilganda – 180×90 sm sxemada ekilgan variantda barcha variantlarga nisbatan mevalari pishishi 3-12 kungacha erta pishgan;

nazorat (5555 tup/ga) variantga nisbatan gektardagi o'simlik soni 11,1 % dan 66,6 % gacha oshib borganda, bir tup o'simlik barg sathi: barcha navlarda ekish sxemalari bo'yicha: 5,0-10,0 % dan 20,0-30,0 % gacha kamayib borgan, gektardagi

barg sathi - 2,7-31,0 % gacha ortib borgan;

qovoq navlarini 180×90 sm sxemada nazorat variantga nisbatan tovarbop hosili: Ispanskaya 73 navida - 17,1 % ga, Izyashnaya navida - 22,3 % ga, Konfetka navida - 15,2 % ga, Shirintoy navida - 11,8 % ga, Yaponskaya navida - 12,3 % ga va Vitaminnaya navida - 12,2 % ga yuqori bo'lgan;

180×90 sm sxemada ekilgan variantda barcha navlarda mahsulot tannarxi eng arzon, sof foyda va rentabellik ko'rsatkichlari eng yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala tajribalari Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan aprobasiyadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan. Hisobotlar institut ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilinganligi, tadqiqot natijalari xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilganligi hamda mahalliy va xorijiy nashrlarda maqolalar chop etilganligi, amaliyotga joriy etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Xorazm viloyati sho'rlangan tuproq-iqlim sharoitida qovoq nav namunalarini o'sishi, rivojlanishi, morfologik va qimmatlik xo'jalik belgilari bo'yicha baholanganligi, mahalliy standart navlarga nisbatan 22-25 kungacha ertapishar, tovarbop hosili 17,3-21,5 % gacha yuqori istiqbolli navlar tanlanganligi; qovoq navlarini sho'rlangan tuproqlarda sug'ormasdan yetishtirishda turli ekish sxemalarda ekib, o'simliklarni o'sishi-rivojlanishi va hosildorlik ko'rsatkichlari o'rganilib 180×90 sm ekish sxemasi eng maqbul ekanligi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mahalliy standart navlarga nisbatan Konfetka, Rossiyanika, Yaponskaya, Matilda namunalari mevalari erta pisharligi, tovarbop hosili yuqori bo'lishi, qovoq navlarini sug'ormasdan yetishtirishda 180×90 sm sxemada ekilgan variantda dastlabki mevalari barcha variantlarga nisbatan 3-12 kungacha erta pishganligi, tovarbop hosili - Ispanskaya 73 navida 17,1-65,5 % ga, Izyashnaya navida 22,3-91,2 % ga, Konfetka navida 15,2-29,0 % ga, Shirintoy navida 11,8-75,9 % ga, Yaponskaya navida 12,3-46,3 % ga, Vitaminnaya navida 12,2-50,0 % gacha yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm viloyatining sho'rlangan tuproqlarida yetishtirish uchun qovoqning istiqbolli navlarini tanlash va sug'ormasdan yetishtirishga mos qulay ekish sxemalarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

Xorazm viloyatining sho'rlangan tuproqlarida istiqbolli qovoq navlari va maqbul ekish sxemalari Gurlan tumanidagi "Gurlan qirmizi hosili" fermer xo'jaligida 4,0 gektar hamda "Qo'sh qal'a" fermer xo'jaligida 4,0 gektar, jami 8 gektar maydonlarga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 12-dekabr 05/06-03-572-son ma'lumotnomasi). Natijada, Standart Shirintoy navi tovar hosili gektariga - 47,4 tonna, Yaponskaya navida - 51,5 tonna va Vitaminnaya navida - 57,2 tonnani tashkil qilib, standart navga nisbatan - 10,8-20,6 % gacha yuqori hosil olishga erishilgan;

Xorazm viloyati Xiva tumanidagi "Davron" fermer xo'jaligi va "Khorezm organik melon" fermer xo'jaliklarida sho'rlangan tuproqlarda qovoqning Ispanskaya 73, Izyashnaya, Konfetka navlarini sug'ormasdan yetishtirishda qo'shqatorlab

nazorat $((360+90)/2 \times 80 \text{ sm})$ va qatorlab $(180 \times 90 \text{ sm})$ ekish sxemalari joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 12-dekabr 05/06-03-572-son ma'lumotnomasi). Natijada, rentabellik ko'rsatkichlari Ispanskaya 73 navida - 138,5%, Izyashnaya navida - 158,2%, ertapishar Konfetka navida - 159,4% tashkil etib, nazorat variant ko'rsatkichlaridan - 32,3; 45,8; 36,2% gacha yuqori bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy maqolalar chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 2 tasi xorijiy, 3 tasi respublika jurnallarida, shuningdek, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika konferensiyalari tezislar chop etilgan hamda 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovoqning kelib chiqishi, ahamiyati, klassifikatsiyasi va yetishtirish texnologiyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar”** (adabiyotlar sharhi) deb atalgan birinchi bobida mavzuga oid, qovoq ekinining kelib chiqishi, tarqalishi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati, klassifikatsiyasi, biologik xususiyatlari, turli tuproq-iqlim sharoitlarida nav tanlash va yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan 190 dan ortiq xorijiy va mahalliy adabiyotlar hamda elektron manbalar sharhi asosida batafsil tahlil qilingan va xulosalar chiqarilgan. Respublikamizda qovoqni sho'rlangan tuproqlarda yetishtirish uchun ertapishar, istiqbolli xorijiy nav namunalarini tanlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan, yetishtirish texnologiyasining muhim elementi ekish sxemalari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazish joyi tuproq-iqlim sharoitlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o'tkazilgan joyi, uning tuproq ta'rifi va iqlim sharoitlari, yo'nalishlari hamda tadqiqot uslublari bayon etilgan.

Dala tajribalari Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutining Ilmiy tajriba stansiyasi tajriba dalalarida 2022-2025 yillarda olib borilgan. Tajriba dalasi tuproqlari sho'rlangan bo'lib,

tuproqdagi kaliy (K_2O_5) 30 sm.da 157,6-174,8 mg/kg va 30-60 sm qatlamda 167,6-156,0 mg/kg, tuproqning sho'rlanish darajasi - umumiy HCO_3 mg/ekv 30 sm.gacha qatlamda 0,041/0,670, 30-60 sm.da 0,043/0,707% mg/ekv; xlor Cl% mg/ekv miqdori tegishli ravishda: 0,037/1,062% va 0,036/1,02% mg/ekv; sulfat (SO_4) mg/ekv miqdori 0,185/3,855% va 0,125/2,606%; Ca% mg/ekv miqdori 0,066/3,277% va 0,059/2,951%; Mg%, mg/ekv 0,011/0,898% va 0,011/0,525% oralig'ida tashkil etgan.

Xorazm viloyati Gurlan tumani meteostansiyasining ma'lumotlariga ko'ra, viloyatida ko'p yillik o'rtacha harorat qish oylarida -3,0 +5,0 °S, yoz oylarida o'rtacha +26,0 +30,0 °S gacha ko'tariladi. 2022-2025 yillardagi ma'lumotlarda havoning o'rtacha harorati 2022-yil aprel oyida +19,8 °S, tuproq harorati +22,3 °S, may oyida +21,7 + 24,2 S, 2023-yil aprel oyida +17,5 + 20,0 °S, may oyida +22,9 +25,4 °S, 2024-yil aprelda +18,5 +21,0 °S, may oyida +21,2 +23,7 S ni tashkil etib qovoq ekini urug'lari unib chiqish, o'sishi-rivojlanishi uchun qulay bo'lgan.

Dissertatsiyaning **“Xorazm viloyati sharoitida sho'rlangan tuproqlarda yetishtirishga mos qovoq nav-namunalarini tanlash”** deb nomlangan uchinchi bobida sho'rlangan tuproqlarda qovoqning 2 ta turiga (21 ta *C.maxima* va 9 ta *C.moschata* turi) mansub yangi nav-namunalarini ekib o'simliklarni o'sishi-rivojlanishi, morfologik, mahsuldorlik va hosildorlik ko'rsatkichlari batafsil bayon etilgan.

Qovoq nav namunalarini urug'lari unub chiqqandan dastlabki mevalari pishib yetilishigacha 90-114 kun, yoppasiga pishib yetilishiga 100-140 kun talab qildi.

O'rganilgan qovoq nav namunalarining dastlabki mevalari pishib yetilishi bo'yicha guruhlanganda: *C.maxima* turidan standart Ispanskaya 73 (112 kun), Stofuntovaya (114 kun), Estamp (113 kun), Kroshka (113 kun), Bolshoy maks (118 kun) Mramornaya (117 kun), Medoviy pirog (112 kun), Zimnaya sladkaya (112 kun), *C.moschata* turidan standart Shirintoy (117 kun), Arabatskaya (116 kun) va Vitaminnaya (111 kun) namunalari o'rtapishar guruhga;


C.maxima turidagi Lazurnaya (108 kun), Parijskaya zolotaya (104 kun), Izyashnaya (105 kun), FEYA (107 kun), Tyoshin pirog (106 kun), Bryuger (110 kun), Kareta dlya zolushki (108 kun), Medoviy vkus (105 kun) namunalari o'rta ertapishar guruhga;

C.maxima turidagi Konfetka (90 kun), Rossiyanika (92 kun), Medoviy desert (94 kun), Lechebnaya (95 kun), *C.moschata* turidagi Yaponskaya (90 kun), Matilda (90 kun), Rozoviy banan (95 kun) Prikubanskaya (90 kun), Jemchujina (90 kun) va Araxisovoe maslo (96 kun) namunalari ertapishar guruhga mansub bo'lgan.

Tadqiqotlarda qovoq nav namunalarining morfologik ko'rsatkichlari (asosiy poya uzunligi tahlil qilinganda barcha nav namunalarda o'rtacha uch yillik ko'rsatkichlari 540,5-141,3 sm oralig'ida tebrandi. *C.maxima* turidagi standart Ispanskaya 73 navida asosiy poya uzunligi 529,7 sm.ni tashkil etdi. Ushbu turdagi Lazurnaya, Estamp, Kroshka namunalari asosiy poya uzunligi standart Ispanskaya 73 naviga nisbatan 23,4-20,3% ga, Konfetka va Lechebnaya namunalarida 69,5-73,4% gacha kalta bo'lib, nav namunalar ichida kalta palakligi bilan ajralib turdi.

C.moschata turidagi namunalarda asosiy poyalari uzunligi 322,3-468,7 sm oralig'ida tebrandi. Standart Shirintoy navi (468,7 sm) asosiy poya uzunligiga

nisbatan Yaponskaya, Jemchujina va Araxisovoe maslo namunalarida 10,1-14,7% ga, Matilda, Vitaminnaya namunalarida 19,3-19,9% gacha kalta bo'ldi. Nav namunalari asosiy poyalari uzunligi bo'yicha ko'rsatkichlarning eng kam muhimlik tafovuti (EKF_{05}) - 9,9 sm, tajribaning nisbiy xatoligi ($Sx\%$) - 2,2 % ni tashkil etdi.



1-rasm. Qovoq nav-namunalarining bir dona meva vazni, bir tupdagi mevalar soni va mahsuldorlik ko'satkichlari (2022-2024 yy.).


C.maxima turidagi standart Ispanskaya 73 navi mevasining o'rtacha vazni 4,30 kg, Stofuntovaya (6,71 kg), Kareta dlya zolushki (6,73 kg) namunalarida ushbu ko'rsatkich 76,9-56,5% ga, Estamp (9,57 kg) namunasida (222,5%) 2,2 barobarga yirik bo'lgan. Namunalar ichida Kroshka (2,40 kg), Rossiyanika (2,19 kg) va Konfetka (1,81 kg) namunalari meva vazni standart Ispanskaya 73 navi ko'rsatkichidan 44,2-57,9% ga past bo'lgan (1-rasm).

C.moschata turidagi standart Shirintoy navi meva vazni 2,4 kg, Vitaminnaya (5,50 kg) va Arabatskaya (5,20 kg) namunalari yirik mevali guruhga, ertapishar Yaponskaya (1,39 kg) namunasi kichik mevali guruhga mansub bo'ldi.

Qovoq nav namunalari bir dona meva vazni ko'rsatkichlari bo'yicha eng kam (EKF_{05}) farq - 0,1 kg, tajribaning nisbiy xatoligi ($Sx\%$) - 3,1%, tupdagi mevalar soni bo'yicha (EKF_{05}) - 0,1 dona, ($Sx\%$) - 3,8 % ni tashkil etdi.

Qovoq nav namunalarida bir tup o'simlik mahsuldorligi tupdagi mevalar soni va vazniga bog'liq holda 4,9 kg.dan - 13,4 kg.gacha o'zgardi. *C.maxima* turidagi standart Ispanskaya 73 navida o'rtacha 8,6 kg.ni tashkil etgan bo'lsa, Medoviy vkus (9,7 kg), Tyoshin pirog (9,6 kg), Stofuntovaya (9,9 kg), Parijskaya zolotaya (9,6 kg), Kroshka (10,1 kg) va Kareta dlya zolushki namunalarida standart ko'rsatkichidan 11,6-17,4% ga, Lazurnaya (10,7 kg) namunasi 24,4% ga, Izyashnaya (12,3 kg) va Estamp (13,4 kg) namunalarida 45,3-55,8% gacha yuqori bo'lgan. *C.moschata* turidagi standart Shirintoy navida bir tup o'simlik mahsuldorligi o'rtacha 10,6 kg.ni tashkil etdi. Yaponskaya (11,4 kg) namunasida 7,5% ga, Vitaminnaya (13,2 kg) namunasida 24,5% gacha yuqori bo'ldi.

C.maxima turidagi standart Ispanskaya 73 navi tovar hosili gektaridan 42,5 t/ga.ni tashkil etgan. Standartga nisbatan Kroshka (49,3 t/ga) 16,0% ga, Kareta dlya zolushki (50,4 t/ga), 18,6% ga, Tyoshin pirog (50,7 t/ga) namunalari 19,4% ga, Lazurnaya (52,4 t/ga), Estamp (63,2 t/ga), Izyashnaya (63,5 t/ga) namunalarida 23,3-49,4% gacha yuqori bo‘lgan (2-rasm).



2-rasm. Qovoq nav-namunalarining hosildorlik ko‘rsatkichlari (2022-2024 yy.)

C.moschata turidagi standart Shirintoy navida tovar hosili 55,9 t/ga, ertapishar Yaponskaya (61,9 t/ga) namunasi 10,7% ga, Vitamininnaya (69,6 t/ga) namunasi 25,0% ga yuqori bo‘lgan. Qovoq nav namunalarining hosildorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, eng kam (EKF_{05}) farqi umumiy hosildorlikda 1,1 t/ga, tovar hosildorlikda 1,0 t/ga, tajribaning nisbiy xatoligi ($Sx_{\%}$) umumiy hosilda - 2,5%, tovar hosildorlikda - 2,4% ni tashkil etgan.

Nav namunalari mevalari tarkibidagi quruq modda miqdori 11% dan 16% gacha oralig‘ida tashkil etdi. Mevasi tarkibidagi quruq modda miqdori eng yuqori (15,6%) Lechebnaya namunasida, umumiy qand miqdori eng yuqori (10-12%) Izyashnaya, Konfetka, Tyoshin pirog, Yaponskaya va Vitamininnaya namunalarida qayd etildi. Meva tarkibidagi karotin miqdori eng yuqori (11-12,5mg/100 g) Lechebnaya, Araxisovoe maslo va Vitamininnaya namunalarida qayd etildi. Vitamin S miqdori bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yaponskaya (15,5 mg/100 g) namunasida aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Qovoqning ertapishar, yuqori hosilli istiqbolli navlarini sinash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida, 2022-yilda birinchi tajribada nav-namunalari ichidan tanlangan *C.maxima* turiga mansub Izyashnaya, Tyoshin pirog va Konfetka, *C.moschata* turiga mansub Vitamininnaya va Yaponskaya navlarini 2023-2025 yillarda ekib nav sinash tajriba olib borilgan va natijalari bayon qilingan.

Qovoqning *C.maxima* turidagi standart Ispanskaya 73 navida dastlabki mevalari pishishi 115 kunda boshlangan bo‘lsa, yoppasiga pishishi 135 kungacha

davom etgan. Ushbu turdagi Izyashnaya va Tyoshin pirog navlari mevalari standart Ispanskaya 73 naviga nisbatan 6-10 kun, Konfetka navi 19-20 kun erta pishdi. *C.moschata* turidagi standart Shirintoy navida mevalari pishib yetilishi 115-135 kunda, Vitaminnaya (110-130 kun) navida 5 kun, Yaponskaya (90-117 kun) navida 25-18 kun erta pishib yetildi.

Standart Ispanskaya 73 navida asosiy poyalari uzunligi o'rtacha 497,5 sm, Tyoshin pirog (415,4 sm) navida 16,5% ga, Izyashnaya (329,8 sm) navida 33,7% ga, Konfetka (147,5 sm) navida 70,4% gacha kalta bo'lgan. Standart Shirintoy navi asosiy poya uzunligi o'rtacha 457,7 sm.ni tashkil etdi. Yaponskaya (445,5 sm) navida ko'p farq qilmasada, Vitaminaya (383,8 sm) navida 16,2% ga kalta bo'lgan.

Uslubiy qo'llanmalarda qovoq ekinida asosiy poya uzunligi 1 m.gacha juda qisqa; 1,2-2,0 m.gacha qisqa; 2,0-3,0 m.gacha o'rtacha; 3,1-6,0 m.gacha uzun va 6,0 metrdan uzun bo'lganlari juda uzun guruhlariga ajratilgan (1-jadval).

(1-jadval).

Qovoq navlarining mevalari o'rtacha vazni va bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'satkichlari (2023-2025 yy.)


Navlar nomi	Bir dona meva vazni		Bir tupdagi meva soni		Bir tup o'simlik mahsuldorligi	
	kg	standartga nisbatan, %	dona	standartga nisbatan, %	kg	standartga nisbatan, %
Qovoqning <i>Cucurbita maxima</i> turlari						
Ispanskaya 73 (st)	4,32	100,0	2,2	100,0	9,5	100,0
Izyashnaya	4,71	109,0	2,4	109,0	11,3	118,9
Tyoshin pirog	4,0	93,0	2,7	122,7	10,8	113,7
Konfetka	1,82	42,1	3,9	177,3	7,1	74,7
Qovoqning <i>Cucurbita moschata</i> turlari						
Shirintoy (st)	2,2	100,0	4,4	100,0	9,7	100,0
Yaponskaya	1,40	63,6	7,3	165,9	10,2	105,2
Vitaminnaya	5,20	236,3	2,3	52,3	11,9	122,7
EKF ₀₅	0,1	—	0,2	—	0,4	—
Sx%	3,1	—	4,8	—	4,0	—

Sinalayotgan navlardan ertapishar Konfetka (147,5 sm) navi qisqa poyali guruhga; ikkala standart va qolgan barcha navlar (329,3-497,5 sm oralig'ida) uzun poyali guruhga mansub bo'ldilar.

Qovoq navlari mevasining o'rtacha vazni tahlil qilinganda, Standart Ispanskaya 73 mevasi (4,32 kg) o'rtacha vazniga nisbatan, Izyashnaya (4,71 kg) navida 9,0% ga yuqori, Konfetka (1,82 kg) navida 57,9% gacha past, standart Shirintoy navi (2,2 kg) mevasi vazniga nisbatan, ertapishar Yaponskaya (1,40 kg) navida 36,4% ga kichik, Vitaminnaya (5,20 kg) navi 2,3 barobargacha yuqori bo'lgan. Standart Ispanskaya 73 navi (9,5 kg) bir tup o'simlik mahsuldorligiga nisbatan, Tyoshin pirog (10,8 kg) navi - 13,7% ga, Izyashnaya (11,2 kg) navi - 18,9% ga yuqori, ertapishar Konfetka (7,1 kg) navi - 25,3% ga past bo'lgan. Standart Shirintoy (9,7 kg) navi mahsuldorligiga nisbatan, ertapishar Yaponskaya (10,2 kg) navi - 5,2% ga, yirik mevali Vitaminnaya (11,9 kg) navi - 22,7% gacha yuqori bo'lgan.

Tanlangan qovoq navlarini gektaridan olingan tovar hosildorligi o'rganilganda,

C. maxima turidagi standart Ispanskaya 73 navi (48,0 t/ga) tovarbop hosiliga nisbatan, Izyashnaya (57,8 t/ga) va Tyoshin pirog (56,3 t/ga) navlari tovarbop hosili - 20,4-17,3% ga, standart Shirintoy navi (51,6 t/ga) tovar hosiliga nisbatan, Yaponskaya (54,9 t/ga) navi - 6,4% ga va Vitaminnaya (62,7 t/ga) navida - 21,5% ga yuqori bo'lganligi aniqlandi (3-rasm).




3-rasm. Qovoq navlarining hosildorlik ko'rsatkichlari, (2023-2025 yy.).

Qovoq navlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinganda gektaridan olingan sof foyda eng ko'p - Yaponskaya navida – 79590,9 ming so'm, eng kam standart Ispanskaya 73 navida 39235,0 ming so'm, rentabellik ko'rsatkichlari bo'yicha eng past ko'rsatkich standart Ispanskaya 73 (131,8%) navida, eng yuqori ko'rsatkich ertapishar Yaponskaya (263,5%) va Vitaminnaya (207,4%) navlarida qayd etildi.

Dissertatsiyaning **“Qovoq navlarini sug'ormasdan yetishtirish uchun qilay ekish sxemalarini aniqlash”** deb nomlangan beshinchi bobida sho'rlangan tuproqlarda qovoqnining mahalliy Ispanskaya 73, Shirintoy va tanlangan Izyashnaya, Konfetka, Yaponskaya va Vitaminnaya navlarini turli sxemalarda qo'shqatorlab: nazorat (360+90)/2×80 sm; (270+90)/2×90 sm va qatorlab 180×90 sm va 180×60 sm sxemalarda gektariga tegishli ravishda: 5555; 6172; 6172 va 9259 donadan o'simlik ekib, o'simliklarning o'sishi-rivojlanishi, hosildorlik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlangan.

Ispanskaya 73 navida nazorat (360+90)/2×80 sm va (270+90)/2×90 sm sxemadagi 2-variantda dastlabki mevalari 116 kunda, yoppasiga 135-136 kunda pishib deyarli farq qilmadi, (180×90 sm) 3-variantda (112 kun) dastlabki mevalari 3 kun erta yetilgan bo'lsa, eng ko'p (9259 tup) o'simlik ekilgan (180×60 sm) 4-variantda dastlabki mevalari nazorat va boshqa variantlarga nisbatan 4-8 kun, yoppasiga pishishi 13-14 kungacha kechikdi. Izyashnaya navida ham dastlabki mevalari nazorat va 2-variantda bir xil 106-107 kunda yetilgan bo'lsa, 3-variantda (103 kun) 3-4 kun erta, 4-variantda (110 kun) 4-7 kun kechroq, mevalarini yoppasiga pishishi (130 kun) 13 kungacha kech sodir bo'ldi. Ertapishar Konfetka navida barcha variantlar bo'yicha dastlabki mevalari yetilishi 92-97 kun oralig'ida, yoppasiga

pishishi 115-120 kun oralig'ida sodir bo'lib, 180×90 sm sxemada ekilgan 3-variantda nazorat va boshqa variantlarga nisbatan 3-4 kun erta yetildi. (4-rasm).



4-rasm. Turli ekish sxemalarini qovoq navlarining fenologik fazalariga ta'siri (2023-2025 yy.).

Shirintoy navida 1-2-3 variantlarda dastlabki mevalari 113-117 kunda etilgan bo'lsa, o'simlik soni eng ko'p ekilgan 4-variantda (125 kun) nazorat va boshqa variantlarga nisbatan 8-12 kun kech etildi. Yaponskaya navida nazorat va 2-variantda dastlabki mevalari (90 kun) etilishi bir xil, 3-variantda (88 kun) 2 kun erta va 4-variantda (95 kun) 5-7 kun, yoppasiga pishishi 9-12 kungacha kechroq sodir bo'ldi.

Vitaminnaya navida dastlabki mevalarni yetilishi nazorat va 2-variantda 109-110 kunda yetilgan bo'lsa, 180×90 sm sxemada (106 kun) 3-4 kun erta yetildi. Izyashnaya navida (9259 tup) eng ko'p o'simlik ekilgan variantda dastlabki mevalari (115 kun) boshqa variantlarga nisbatan 6-9 kunga, yoppasiga pishishi (140 kun) 11-14 kunga kechikdi.

Tadqiqotlarda o'simliklarni qatorlab kvadrat shaklga yaqinroq joylashtirilganda, nafaqat meva sifati va hosildorlikka, balki fenologik ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 180×90 sm sxemada ekilganda, barcha navlarda dastlabki mevalari yetilishi nazorat va boshqa variantlarga nisbatan 3-9 kun, yoppasiga yetilishi 2-14 kungacha tezlashdi. Demak, qovoq navlarini turli sxemalarda ekilganda faqat mahsuldorlik, hosildorlik ko'rsatkichlariga emas, fenologik ko'rsatkichlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatar ekan.

Qovoq navlarini turli ekish sxemalarida ekib sug'ormasdan yetishtirilib morfologik ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, Ispanskaya 73 navida asosiy poya uzunligi nazorat (360×90)/2×80 sm variantda 477,7 sm.ni tashkil etdi, (270×90)/2×90 sm. sxemada (428,6 sm) nazorat 10,3% ga, 180×90 sm sxemada 18,4% ga kalta bo'ldi. 180×60 sm. sxemada (599,5 sm) nazorat va boshqa variantlarga nisbatan 25,5-53,8% gacha uzun bo'ldi. Yon shoxlari soni nazorat variantida 4,2 dona, 2-variantda 4,3 dona deyarli farq qilmadi, 4-variantda (3,5 dona) 16,7% ga kam bo'lsa, 3-

variantda (5,2 dona) 23,8% ga ko'p bo'lgan.

Izyashnaya navida nazorat variantida asosiy poya uzunligi 310,5 sm, 2-variantda 9,6% ga, 3-variantda 17,5% ga qisqarib bordi, 4-variantda, aksincha, 6,2% ga uzunroq bo'ldi. Yon shoxlari soni nazorat variantda o'rtacha 4,3 dona, 3-variantda (4,5 dona) 4,6% ga ko'proq, 4-variantda 7,0% ga kam bo'lgan. Konfetka navini asosiy poya uzunligi nazorat variantda 146,5 sm, 2-variantda (137,7sm) 6,0% ga, 3-variantda (131,3 sm) 10,4% ga va 4-variantda 3,5% ga kaltaroq bo'lgan. Yon shoxlar soni nazorat variantda 4,3 dona, 3-variantda 9,3% ga ko'p, 4-variantda yon shoxlari soni nazorat variant ko'rsatkichidan 14% ga kam bo'ldi.

Shirintoy navida nazorat $(360+90)/2 \times 80$ sm variantda asosiy poya uzunligi 439,9 sm, 2-variant $(270+90)/2 \times 90$ sm sxemada (427,7 sm) 2,8% ga, 180×90 sm sxemada ekilgan 3-variantda (387,8 sm) 11,8% ga kalta, gektariga 9259 dona o'simlik ekilgan 4-variantda (494,4 sm) 12,4% ga uzun bo'lgan. Yon shoxlari soni nazorat variantda 4,2 dona, 2-variantda 2,4% ga, 3-variantda 9,5% ga ko'p, 4-variantda 14,3% ga kam bo'ldi. Yaponskaya navida nazorat variantda asosiy poya uzunligi 455,5 sm, 2-va 3-variantlarda 447,6-466,4 sm oralig'ida sezilarli farq kuzatilmadi, ammo 4-variantda 8,7% ga uzunroq bo'ldi. Yon shoxlari soni eng ko'p o'simlik ekilgan 4-variantda 20,5% gacha kamayib bordi. Vitaminnaya navida asosiy poya uzunligi nazorat variantda 427,0 sm.ni tashkil etgan bo'lsa, 2-variantda 9,1% ga, 3-variantda 20,7% gacha kalta, o'simlik soni eng ko'p bo'lgan 4-variantda (459,0 sm) 7,4% ga uzun bo'lgan. Vitaminnaya navida yon shoxlari soni nazorat variantda 4,2 dona, 2-variantda (4,0 dona) 4,8% ga kamroq, 3-variantda (4,4 dona) 4,7% ga ko'proq bo'ldi. O'simlik soni eng ko'p ekilgan 4-variantda yon shoxlari soni barcha variantlarga nisbatan 20,0-23,0% gacha kamayib bordi.

Turli sxemalarda ekilgan qovoq navlarini asosiy poya uzunligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng kam (EKF_{05}) farq -11,3 sm, tajribaning nisbiy xatoligi ($Sx_{\%}$) -3,1%, yon shoxlari soni bo'yicha eng kam (EKF_{05}) farq - 0,1 dona, tajribaning nisbiy xatoligi ($Sx_{\%}$) - 3,0% ni tashkil etdi.

Ispanskaya 73 navida $(360+90)/2 \times 80$ sm. nazorat variantda bir dona meva vazni 3,38 kg, tupdagi meva soni 1,6 dona va bir tup o'simlik mahsuldorligi 5,4 kg.ni tashkil etdi. $(270+90)/2 \times 90$ sm sxemada ekilgan 2-variantda meva vazni (3,36 kg) 5,6% ga, mahsuldorligi (4,7 kg) 12,5% ga pastroq, 180×90 sm sxemada meva vazni (3,50 kg) 3,5% ga, mahsuldorlik ko'rsatkichi (5,6 kg) 3,7% ga yuqori, 180×60 sm. sxemada meva vazni (2,33 kg) 31,1% ga, mahsuldorligi (2,8 kg) 48,2% gacha past bo'ldi.

Izyashnaya navi nazorat variantida bir dona meva vazni 3,73 kg, tupdagi mevalar soni 1,5 dona, mahsuldorligi 5,6 kg.ni tashkil qildi. 2-variantda tupdagi mevalar soni nazorat variant bilan teng bo'ldi, lekin mevasining vazni (3,13 kg) va mahsuldorligi (4,7 kg) 16,1% ga kam bo'lgan. 3-variantda meva vazni (3,81kg) nazorat ko'rsatkichidan 2,1% ga, tupdagi mevalar soni 6,7% ga, mahsuldorligi (6,1 kg) 8,9% ga yuqori bo'ldi. 4-variantda meva vazni (2,45 kg) 34,3% ga, tupdagi mevalar soni 26,7% ga va mahsuldorligi 51,8% gacha pasayib bordi.

Konfetka navida nazorat variantda meva vazni 1,79 kg, tupdagi meva soni 2,4 dona va bir tup o'simlik mahsuldorligi 4,3 kg.ni tashkil etdi. Ushbu navimizda 4-variantda meva vazni (1,5 kg) 16,7% ga, tupdagi meva soni (1,6 dona) 33,4% ga va

bir tup o'simlik (2,4 kg) mahsuldorligi 44,2% gacha kam bo'ldi. 180×90 sm sxemadagi 3-variantda meva vazni (1,83 kg) 2,2% ga, o'simlik mahsuldorligi 2,3% ga yuqori bo'lgan.

